

Usmanova Qumriniso Saidaliyevna*Chirchiq davlat pedagogika universiteti**“Boshlang'ich ta'lif metodikasi” kafedrasи o'qituvchisi***Mirtolipova Mohiro'za Mirsait qizi***CHDPU Boshlang'ich ta'lif fakulteti 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Maqolada o'zbek romannavislik maktab asoschisi -Qodiriy hayoti va ijodi, „O'tkan kunlar” romani haqida qisqacha ma'lumotlar.*

Kalit so'zlar: *feudal, xurofotlardan, entikib, „Fikr aylagil”, „Juvonboz”, Mirkarimqutidor.*

„Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar Bobolarimiz merosini chuqr o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu beba ho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz. Ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Shavkat Mirziyoyev

Jadidchilik-yangilanish, yangi zamonaviy maktab- maorifini targ'ib qiluvchi g'oya bo'lib, u Turkiston feodal qoloqlik ,xurofotlardan ozod qilish , millat va Vatanni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqib, milliy davlat barpo etish hisoblandi. O'zbek jadidchilari ham yurt manfati uchun ko'plab ishlarni ammalga oshirganlar.Shulardan: Abdurashidxonov Munavvar qori, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy va boshqalar. Qisqa hayoti davomida vatan uchun o'z jonidan fidoyilaricha kechgan, buyuk jadidchilarimizdan biri Qodiriy, biz yoshlarga o'rnak bo'lib qolgandir.Insoniylikni, kelajak avlodga manan ilm berishni qalban ko'zlagan inson bu Abdulla Qodiriy! Jadidchimiz 1894-yil 10-aprelda Toshkentda bog'bon oilasida dunyoga kelgan.Yoshlikdan hayot qiyinchiliklari bilan oilaviy tang holatda yashaydi. O'z xotiralaridan ham bolalik kunlarini kambag'al, bog'bonlik mashg'uloti bilan kun kechirganliklari ,7-8 yoshida qorni oshga to'yaganligi yupun kiymlar kiyganligi besh farzandni tomog'i 80-yoshlik chol otasining tunu-kun mehnat qiladigan 1300 sarjin bog'ning hosiliga bog'liq bo'lganligini aytgan . Esini taniganidayoq otasiga bog' ishlarida yordam bergen. Keyinchalik musulmon maktabida, rus tuzim, Abulqosim Shayx madrasasida ta'lif olgan. Shu tariqa o'z ijodini boshlagan .Asarlarida real voqealarni, oshirmay – yashirmay bayon etgan. Qodiriyni dunyoga tanitgan romanlari „Mehrobdan chayon”, „O'tkan kunlar”.She'rlari: „Ahvolimiz ” , „Millatimga”, „Fikr aylagil”. Dramasi „Baxtsiz kuyov”. „Juvonboz” hikoyasi. Adib millat ahvolini o'nglash uchun juda ko'p bora harakat qilgan , ammo Abdulla Qodiriy ijodini hukumat kishilari tirnoq ostidan kir izlab , g'arazgo'ylik bilan tuhmat va bo'hton yog'dirganlar. Jadidimiz o'z ijodini himoya qilib, yozgan fikrlari xususida jasorat bilan aytadiki: „ Men to'g'rilik

orqasida bosh ketsa „ih” deydirgan yigit emasman ”.So’zining ohirida yana ta’kidlaydi „So’zim ohirida odil sudlardan so’rayman : Garchi men turlik bo’hton , shaxsiyat va soxtalar bilan , ham anglashilmovchiliklar orqasida, ikkinchi oqlanmaydurg’on bo’lib qoralandim .Loqal ularning , qoralovchi qora ko’zlarining ko’ngli uchun bo’lsa ham , menga eng oliv bo’lgan jazoni bera ko’ringiz. Ko’ngilday shamsi g’uboroti , teskarichilik maqsadi bolmog’on sodda , go’l , vijdonlik yigitga bu qadar xo’rlikdan o’lim tansiqroqdir. Bir necha shaxslarning orzusicha , ma’naviy o’lim bilan o’ldirildim . Endi jismoniy o’lim menga qo’rqinch emasdir .Odil sudlardan men shuni kutaman va shuni so’rayman. 1926-yil 16-iyun, Samarqand ”. Shundan keyin hayoti va ijodida o’zgarishlar ro’y beradi.Ijtimoiy hayotga aralashuvi matbuotdagi faoligi pasayadi. Kolxoz hayotini o’z asarida yoritib berish maqsadida manbalar to’plash uchun turli qishloqlarini kezadi .Go’zal asarlar yozib , o’z xalqining ma’naviy dunyosini beba ho asarlar boyitayotgan bo’lsa ham, mustabid tuzum uning qadriga yetmadi . Qayta xalq dushmaniga chiqardi .1937- yil 31- dekabr hibisga olindi tergov jarayonida „ Menga qo’ylgan ayblarni boshdan oyoq rad etaman . Haqiqat yo’lida har qanday jazodan , qiyonoqdan qo’rqmayman agar otmoqchi bo’lsalaring , ko’kragimini kerib turaman” deb mardona turadi. „Qo’rkoqlik vijdonsizlikdir”kabi so’zlarga hayoti davomida amal qildi.Undan biz yoshlarga ko’pgina o’lmas asarlar meros qolgan .

Jaholat dardlarining da’vosi - ma’rifat. Darhaqiqat, hamma zamonlarda bilganlar bilan bimaganlar , o’qiganlar bilan o’qimaganlar , ma’rifatlilar bilan johillar o’zaro farqlangan . Ma’rifat ziyyosidan baxra olish – millatning qalbini nurlantirish demakdir. Zero , Qodiriyning millat ruhida yozilgan asarlari, o’zbeklar turmush tarzining turli qirralari aks etirgan. Millatparvarlik, ma’rifatparvarlik ruhida yozilgan jadidchilik g’oyalari bilan sug’orilgan edi. Abdulla Qodiriyy xalqimizni uyg’oqlik va fikrlashga chorlaydi. Adib romanlarida millatni ichdan yemiradigan illatlarini dadil tanqid qiladi. Sodda insonlarni o’zligini anglashga , yangilikka chaqiradi, lekin ayrim qora niyatli amaldorlar ma’rifatga yetaklovchi insonlarni jumladan Qodiriyni ham chirkin so’zlar bilan qoralab qamatishga harakat qilishadi va o’z niyatlariga yetib o’lim jazosi bilan hukm qildiriladi.

„O’tkan kunlar” romani tilga olinganda bir entikib , hayratlar bilan Otabek va Kumush , Anvar va Ra’nolar taqdirini esga olmaydigan o’zbek ziyolisi , adabiyot muhlisi bo’lmasa kerak .Bu romanlarni o’qigan o’quvchi Abdulla Qodiriyy iste’dodiga tasannolar aytadi. Adibning badiiy so’ziga betakror joziba mujassamdir. Mana necha yillar oradan o’tsa ham Qodiriyning romanlari sevib o’qiladi va o’quvchilar qo’lida qo’lma – qo’l yuradi. Romani o’qiganda o’quvchi zerikmaydi qayta- qayta o’qishga zaruriyat sezaveradi. Yozuvchi shu darajada mohirona yozganki qahramonlar kulganda kulib, yig’laganda yig’lab romani o’qiymiz.

Darhaqiqat , Abdulla Qodiriyy „O’tkan kunlar” romani yozishi bilan O’zbek romannavislik maktab asoschisiga aylanadi. Yuksak talant egasi-yosh adib qalami ostida chiqqan birinchi romani kitob ixlosmantlari orasida shuxrat qozonadi. Roman, „Inqilob” jurnalida turli yillarda har bir bo’limi alohida- alohida kitob holida nashr etiladi. „O’tkan kunlar”yozilgan davr o’zbek xalqi uchun millatning erki , ozodligi ,

mustaqiligi , jaholatdagi o'rni masalasi hayot-mamot ahamiyatiga molik edi . Qodiriy o'z davrining ilg'or fikrlovchi ziyoli shaxs sifatida vatan va millat taqdiri ustida astoydil qayg'uradi va najot yo'lini izlaydi. „O'tkan kunlar " romani orqali xalqning ong-u shuurini uyg'otmoqchi bo'ladi. Unda tariximizning kir , qora kunlari „-yurtni mustamlaka balosiga giriftor etgan keyengi noahil „xon zamonlaridan " bahs yuritadi. Asarning bosh qahramoni Otabek va Kumush .Yusufbek Hoji Otabekning otasi , O'zbek oyim onasi. Mirkarimqutidor Kumushning otasi, Oftoboyim onasi . Roman voqealarini asosan Toshkent va Marg'ilonda sodir bo'ladi. Bu paytda Toshkent hokimi Azizbek Marg'ilon xoniga qarshi bosh kutaradi orada ko'p beginoh insonlar qoni to'kiladi.Fitnachilar tomonidan xonlarni bir-biriga gij- gjlash natijasida doimgidek beginoh xalq aziyat chekadi. Azizbek tomonidan juda katta darajada och xalqqa soliq solinadi va bu soliqni yig'ishni Otabekning otasi Yusufbek Hojiga yuklatiladi.Nizoli vaziyatlar natijasida xalq bosh ko'taradi .Toshkent hokimi Azizbek xalq tomonidan Marg'ilon hokimiga topshiriladi. Keyinchalik Otabek va Kumush taqdiri ham tubdan o'zgaradi . Kumushga kundosh bo'lib O'zbekoyim injiqqliklari natijasida Zaynab kelin bo'lib keladi. Bu paytda Otabek ham qattiq siqilib o'zi hohlamagan holda Kumushni o'g'irlab ketmoqchi bo'lgan Homidni o'ldiradi. Ko'plab chigal voqealar natijasida Kumush va Otabek yarashashishadi. Keyinchalik Kumush Toshkentga kelin bo'lib keladi va kundoshi Zaynab bilan yashaydi. Kumush farzandli bo'ladi, Zaynab Kumushni zaharlaydi va oqibatda Kumush vafot etadi. O'g'liga Yodgor deb ism qo'yishadi. Og'riqli kunlarni yengib o'ta olmagan Otabek urushga jo'naydi.

Roman jiddiy ko'zatilsa qahramonlar hayoti taqdiri azal hukmi ostida harakat etadi. Ba'zi o'rnlarda adib o'z qalamini ojizligini tan olishi ham shundan bo'lsa , ajab emas. Asar turli insoniy taqdirlar , ijtimoiy -siyosiy oilaviy-ishqiy muamolar qalamga olingan. Xalqning obod va ozod turmushini chin dildan istagan Abdulla Qodiriydekkir insoning ma'naviy- estetik dunyosiga ham bunday fikr mulohazalar chuqur o'yga toldiradi.Taqdir o'yinlari natijasida butun xalq fojiasi , xalq ichidagi har bir oilaga urush ta'siri sababli oilalar buzilib ketadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Yoshlar ishlar agentligi. Jadidlar to'plami, Abdulla Qodiriy.
2. „O'tkan kunlar"
3. Usmonova Q.S . Boshlangich sinf o'quvchilarida tankidiy fikrlashni shakllantirishda pedagogic-psixologik integratsiya va uzlucksizlik. М УАЛЛИМ ХЕМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИ . 2023/3 .370-375-b
<https://lib.cspl.uz/index.php?newsid=7951>
4. Usmonova Q.S. Boshlangish ta'limda Filandiya ta'lim tizimini imkonoyatlari . Международный научный журнал № 4 (100), часть 2 «Научный импульс» Ноябрь, 2022./4. 899-903-b

5.Usmonova Q.S Development of Steam International Assessment Program in Primary Education. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE. 30th Apr 2023. 242-244 s

6.Usmonova Q.S. Use of Foreign Experiences and World Pedagogy in Elementary Education Teaching . Diversity Research: Journal of Analysis and Trends . Volume 1, Issue 5, August 2023 . 27-29 s